

O'ZBEKISTONDA EKOLOGIK MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.

Muminov Jaxongir Baxtiyor o`g`li

Termiz davlat universiteti Tabiiy fanlar fakulteti Ekologiya va atrof muhit muxofazasi (tarmoqlar va sohalar bo`yicha) ta`lim yo`nalishi 2- kurs talabasi.

Rahimqulova Husnora Xolmo'min qizi

Termiz davlat universiteti Tabiiy fanlar fakulteti Ekologiya va atrof muhit muxofazasi (tarmoqlar va sohalar bo`yicha) ta`lim yo`nalishi 1- kurs talabasi.

Xurramova Ruxshona Zokir qizi

Termiz davlat universiteti Tabiiy fanlar fakulteti Ekologiya va atrof muhit muxofazasi (tarmoqlar va sohalar bo`yicha) ta`lim yo`nalishi 1- kurs talabasi.

Mamatmurodova Sevinch Mamadamin qizi

Termiz davlat universiteti Tabiiy fanlar fakulteti Ekologiya va atrof muhit muxofazasi (tarmoqlar va sohalar bo`yicha) ta`lim yo`nalishi 1- kurs talabasi.

Annotatsiya. Maqolada aholi ekologik madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan tizimli ishlarni amalga oshirish, atrof-muhitga zararli ta'sir ko'rsatuvchi obyektlarni va suv tozalash inshootlarini inventarizatsiyadan o'tkazish bo`yicha chora-tadbirlar dasturi qabul qilinib, hayotga izchil tatbiq etilmoqda deb xulosa va takliflar kiritilgan.

Kalit so'zlar: atrof-muhit, chora-tadbirlar, yashil iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, ekologik barqarorlik, ekologik muammo.

Kirish. Bugungi kunda ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish va uni yaxshilash eng dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda. O'tgan asrning oxiriga kelib inson bilan tabiat o'rtaсидаги munosabatlar muvozanatining buzilishi natijasida atrof-muhit, ekologik vaziyat keskin o'zgarishlarga yuz tutdi. Respublikamiz ekologiyasini muhofaza qilish va uni yaxshilash uchun, ekologik tanazzulning oldini olish, yurtimizning qadimda ma'lum bo'lgan ekologik holatini qayta tiklashimiz, tarixni yaxshilab o'rganishimiz hamda undan hozirgi sharoitda foydalanish imkoniyatlarini qidirib topishimiz kerak. Hozirda inson faoliyati ta'sirida biosferaning o'zgarishi juda tezlik bilan bormoqda. Insoniyatning tabiiy jarayonlarga ta'siri yoki yomon munosabatda bo'lishi natijasida XX asr o'rtaлидаги ekologik muammolar ko'payishiga olib ketdi va bu muammolar avj olib ketdi. Bugungi kunda ibridoiy sof tabiat haqida gapirmasa ham bo'ladi. Chunki yer yuzidagi o'rmonlar qisqarishi, shu bilan birga daraxt va butalarning kesib tashlanishi, yerlar dehqonchilik qilish maqsadida o'zlashtirildi, dorilar bilan

o'g'itlandi, har xil chiqindi hamda gazlar bilan toza havo va tabiatga zarar yetkazildi. Hozirgi vaqtida insonning tabiat qonunlari va ekologik xavflar haqidagi bilimlarining yetarli emasligi sayyoradagi og'ir ekologik inqirozga olib keldi. Shuning uchun ham ekologik oqibatlari noaniq bo'lgan tabiatni ekspluatatsiya qiluvchi yangi megaproektlarga ham juda ehtiyyotkorlik bilan munosabatda bo'lishni talab etadi. Aks holda, ushbu xatarlar juda xilma-xil bo'lib, ular iqlim o'zgarishi va qurg'oqchilik kabi turli xil muammolarga olib keldi. Yangi yashil iqtisodiyotning asosiy maqsadi atrofmuhit uchun xavflarning sezilarli darajada kamayishi va ushbu xavflarning tanazzulidir. Ayniqsa, havoning ifloslanishi, O'zbekistonning shahar joylarida dolzarb ekologik muammo darajasiga chiqib bo'ldi. Sanoat chiqindilari, eskirgan infratuzilma va eskirgan transport vositalari havo sifatining yomonlashishiga sabab bo'immoqda. Bu aholi salomatligiga katta xavf tug'diradi, chunki nafas olish kasalliklari va boshqa tegishli sog'liq muammolari tez-tez uchraydi. Chiqindilarni tashlash bo'yicha qat'iy qoidalarni joriy etish, toza texnologiyalardan foydalanishni rag'batlantirish va jamoat transporti infratuzilmasini yaxshilash mamlakatda havo ifloslanishini kamaytirishga yordam beradi. Va nihoyat, chiqindilarni yetarli darajada boshqarish O'zbekistonda jiddiy ekologik muammo hisoblanadi. Chiqindilarni yo'q qilish ob'ektlarining yetarli yemasligi va chiqindilarni noto'g'ri boshqarish amaliyoti yer, suv omborlari va havoning ifloslanishiga olib keladi. Chiqindilarni boshqarish bo'yicha kompleks strategiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirish, shu jumladan qayta ishlash dasturlari, chiqindilarni saralash va tegishli chiqindilarni qayta ishlash korxonalarini tashkil etish juda muhimdir. Iqtisodiyot resurslardan samarali foydalanish va chiqindilarni yo'q qilishga yordam beradigan imtiyozlar berish orqali sayyoramizning ifloslanishini oldini olish o'ta zarur masala hisoblanadi. Bu borada O'zbekiston BMTning Barqaror taraqqiyot maqsadlari hamda Iqlim bo'yicha Parij bitimiga qo'shilgan. Shuningdek, 2019 yilda O'zbekiston "Yashil iqtisodiyot"ga o'tish strategiyasi"ni qabul qildi. Ushbu strategiyada mamlakatda uglerod sarfini keskin kamaytirish, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida ekologik toza va resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etish, qayta tiklanuvchi, samarali energiya manbalaridan keng foydalanish ko'zda tutilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-436-sun "2030 yilgacha O'zbekiston Respublikasining «yashil» iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha choratadbirlar to'g'risida"gi qarorida 2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish, O'zbekiston Respublikasining «yashil» iqtisodiyotga o'tish strategiyasi doirasida «yashil» va

inklyuziv iqtisodiy o'sishni ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan choratadbirlar samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish hamda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida resurslarni tejashni yanada kengaytirish choratadbirlari bo'yicha dastur va 2030 yilgacha O'zbekiston Respublikasida «yashil» iqtisodiyotga o'tish va «yashil» o'sishni ta'minlash bo'yicha xarakatlar rejasi belgilab olindi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Atmosfera havosini muhofaza qilishning asosiy yo'nalishi shahar va aholi yashaydigan punktlarda atmosfera havosining sifatini yaxshilash, keyinchalik sanitargigienik qoidalarga rioya qilish buning uchun Respublikamizning barcha hududlarida chiqindilarni kamaytirish, kam chiqindili texnologiyalarni yaratish, chang to'plovchi va tozalovchi yangi qurilmalarni yaratish va ularning ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, eskirgan qurilmalarni yaxshilash bilan almashtirish va boshqalar. Orol dengizining qurishi iqlim o'zgarishiga ham sababchi bo'ldi. Qurg'oqchilik tufayli iqlimning keskin kontenentalligi ortib ketdi. Dengiz va quruqlik o'rtasidagi haroratning o'zgarishi, shamol tezligining ortishi, suvning to'lqinlanish hodisasini kuchaytirishiga olib keldi.

Salbiy ekologik tendensiyalarning davom etishi butun insoniyat uchun ham, alohida mamlakatlar uchun ham o'ta xavfli oqibatlarga olib kelishi mumkin. Dunyo aholisi 2040 yilga kelib 7 milliarddan 9 milliard kishiga ko'payadi va o'rta sinf iste'molchilarining soni kelgusi 3 yil ichida 20 milliard kishiga ko'payadi va resurslarga bo'lgan talab shiddatli ravishda oshadi. 2030 yilga kelib dunyo aholisining oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyoji kamida 50%, energiya 45% va suv resurslari 30% ga oshadi va bularning barchasi ekologik chegaralar keng iqtisodiy o'sishga yangi cheklovlarni qo'ygan bir paytda sodir bo'ladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki. Avvalo, sohaga oid yangi qonun loyihalari yaratish, mavjudlarini takomillashtirish, nazorat-tahlil faoliyatini bugungi talab darajasida kuchaytirish, uzluksiz ekologik ta'lim konsepsiyasini ishlab chiqish, ekologik nazoratning jamoatchi inspektorlari tizimini rivojlantirish, aholi ekologik madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan tizimli ishlarni amalga oshirish, atrof-muhitga zararli ta'sir ko'rsatuvchi obyektlarni va suv tozalash inshootlarini inventarizatsiyadan o'tkazish bo'yicha choratadbirlar dasturi qabul qilinib, hayotga izchil tatbiq etilmoqda. Ko'rinish turibdiki, oldimizda turgan vazifalar nihoyatda zalvorli. Ularni muvaffaqiyatli tarzda amalga oshirish har birimizdan bor bilim va mahoratimizni ishga solishni, yanayam aniqroq aytadigan bo'lsak, Vatanimiz taraqqiyoti yo'lida yonib yashashni talab etadi.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Mirziyoyev Sh. M. 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "Ekologiya va atrofmuhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoni. 21-aprel 2017-yil, Toshkent.
3. Qayumov A.A., Raxmonov R.N., Egamberdieva L.SH., Xamroqulov J.H. Tabiatdan foydalanish va uni muhofaza qilish. – T.: "Iqtisodiyot", 2014.
4. Nigmatov A.N. ekologiyaning nazariy asoslari. ekologiya va atrof muhit Muhofazasi ta'lif yo'nalishi va mutaxassisligi uchun o'quv qo'llanma.-mas'ul muharrir b.f.d. A.S.Yuldashev -T., 2013.